

**YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA AGRESSIV-XULQINING
SABABLARI VA UNI BARTARF ETISH STRATEGIYALARI**

Narziyeva Farida Abduxamid qizi
G'uzor tumani 17-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda avj olib borayotgan maktab o'quvchilari o'rtasida agressiv xulq atvorni oldini olishda maktab psixologining o'rni, agressiv xulq atvor psixodiagnostikasi va korreksiyasi, o'quvchilar o'rtasida o'zaro sog'lom munosabatlar o'rnatish, va bir-birlariga nisbatan samimiy munosabatlarini shakllantirish to'g'risidagi fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: his-tuyg'ular, agressiv xulq atvor, qat'iyat, irodaviy sifatlar, yosh xususiyatlari, samarali harakat, individual xususiyatlar, moslashuvchanlik, teng huquqlilik, umuminsoniy qadriyatlar.

Davlatimiz olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi kelajak uchun mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Bola yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro'baro bo'lib, natijada uning xatti-harakatlarida agressiya elementlari kuzatilaboshlaydi. Odatda, boladagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolada chuqur taassurot qoldirib, o'tishi qiyin kechadi. Yuqoridagi holatlardan ma'lum bo'ladiki, aksariyat hollarda boladagi agressiyaning sababi oilaviy munosabatlar sanaladi. Agar oilada ota-ona bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantira olsa, muloqotga mehribonlik, g'amxo'rlikni kiritisa, shu asosida unda agressivlikni yengib o'tishga imkoniyat yaratadi. Agressiv bolaning ota-onasi bilan ishlash qiyin jarayon. Sababi ularga avvalo agressiya keltirib chiqargan yoki oilada soglom muhitshakllantira olmagan, yoki bolaning stress olishi mumkin bo'lgan holatlardan himoya qila olmaganligini tushuntira bilish kerak. Shuning uchun psixolog iloji boricha ota-onalar bilan psixoterapevtik ishlarni olib borishi kerak. Agressivlikdan qutulish uchun ham ishni ota-onadan boshlash lozim. Xulq-atvorida o'zgarishlar kuzatilgan bolalar bilan ishlash jarayoni o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Agressiv bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan usul –hozirgi kunda eng ommalashgan psixoterapevtik ishlarning guruhiiy usulidir. Boladagi agressivlikni bartaraf etishni, ya'ni korreksiya qilishni, uning sabablarini, kelib chiqishini aniqlashdan boshlash lozim. Korreksion uslub har bir bolaga alohida yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Bunga quyidagilarni misolqilib keltirishimiz mumkin:

Agressiyaning bartaraf etishda o'yindan foydalanish, yangi ijtimoiy yondashishni tatbiq etish. Bolaning agressiv harakatlarini ta'qiqlash (bolaga agressiyaning

ko'rsatishga yo'l qo'ymaslik). Korreksion ishlar faqat bola bilan emas, balki parallel ravishda ota-onalar va o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Farzandlar har doim uni yaxshi ko'rishlarini sezishi va tushunishi lozim. U ota-onasiga kerakligini his qilishi darkor. Agressiv bolalar bilan olib boriladigan psixo-korreksionishlarning vazifalari: Bolalarda agressivlikni bartaraf qilish uchun ularga quyidagilarni bajarishni tavsiya qilinadi: -yostiq bilan kurashish; jismoniy harakatli o'yinlardan foydalanish; qog'oz yirtish; urishgisi kelayotgan odam rasmini chizish va yirtib tashlash; "hayqiriq xaltachasidan" foydalanish; psixo-gimnastika bilan shug'ullanish; ertakterapiya, izoterapiya (loy, suv bilan ishlash), artterapiya, musiqaterapiya, animalterapiya –uy hayvonlaridan foydalanish. Yuqoridagi mashqlarni bolaning xarakter xususiyati va vaziyatidan kelib chiqib tavsiya qilinadi. Agressiv bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda quyidagi o'yinlardan foydalanish mumkin:

"Yumshoq qo'lchalar"

O'yinning maqsadi: qo'l mushaklaridagi taranglikni yo'qotish. Bolalarni agressiv holatdan chiqarishga yordam berish, idrokni rivojlantirish, kattalar va bolalar o'rtasida munosabatlarni mustahkamlash.

Kerakli jihozlar: 6-7 ta mayda buyumlar: shisha flakon, munchoq, cho'tkacha.

O'yinning borishi: Trener 6-7 ta mayda buyumlarni oladi: shisha flakon, munchoq, cho'tkacha, paxta va h.k. Ularning hammasini stolga qo'yadi. Bolalarga yengini tirsagigacha shimarish taklif etiladi; Trener ularning qo'lidan "jonivorlar" yurib, yumshoq qo'lchalari bilan tegib o'tishlarini aytadi. Ularning ko'zlari yumuq holda qaysi "jonivorlar" qo'llariga tegib o'tganini topishlari lozim. O'yin variantlari: "jonivorlar" bolalarning kaftga, yuzlariga, tizzalariga tegib o'tishi mumkin.

"Ayiqchaga ezgu so'zlarni ayt"

O'yinning maqsadi: bolalarda o'z-o'zini baholashni oshirishga yordam berish, bir-birlariga maqto'v so'zlarini izhor qilishga, e'tiborli bo'lishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar: koptok, o'yinchoq ayiqcha.

O'yinning borishi: Trener va bolalar doira shaklida o'tiradilar, Trenerning qo'lida koptok bo'ladi. Trener va bolalar koptokni bir-birlariga uzatib, odamlarda qanday yaxshi xususiyatlar bo'lishini esga olishadi. So'ngra Trener o'yinga o'yinchoq ayiqchani taklif etadi. Bolalar unga quyidagi so'zlarni aytishadi: "Sen –... (yaxshisan, quvnoqsan, tirishqoqsan)". So'ngra navbati bilan har bir bola "ayiqchaga aylanishadi" (o'yinchoqni qo'lda ushlab turadi), qolgan bolalar ayiqcha rolidagi bolaga ezgu so'zlarni aytadilar. O'yin shu tarzda davom etadi.

Bunday korreksion o'yinlarni bir nechtasini misol qilib keltirish mumkin. O'quvchilardagi agressivlikni bartaraf etishda pedagoglarning vazifalari: o'zining negativ hissiyotlarini nazorat qilishlari; bolaning o'z his-tuyg'ulari, kechinmalari haqida suhbatlashish; o'quvchining "ichki dunyosiga" quloq solish; bola

shaxsini baholamaslik, shunchaki salbiy xatti-harakatlarining oqibatlarini tushuntirish.

Agressiv bolalarning ota-onalariga maslahatlar:

-farzandingiz bilan birga o'ynang, farzandingiz negativ hissiyotlarini o'yin orqali chiqarib yuborsin.

-bolaga agressiv harakatlarining oqibatlarini bosiqlik bilan tushuntiring, agressiv harakatlariga nisbatan javobgarlikni sezishga ko'maklashing;

-farzandingizni kamsitmang, haqorat qilmang; -uning yutuqlarini, ijobiy xislatlarini ayting;

-bolaga haddan tashqari ko'p to'siqlar qo'ymang, ovozingizni balandlatmang;

-vaziyatni nazorat qilishga harakat qiling, vaziyatni tinch ohang bilan tushuntiring;

-jismoniy jazo qo'llamang;

-farzandingizni yaxshi ko'rishingizni aytib turing, mehrli nigohlaringizni, shirin so'zlaringizni ayamang; -atrofdagilarga g'amxo'rlik qilishga imkon yaratib bering;

-bolangizga e'tiborliroq bo'ling, uning emotsional qo'rquvini his qiling;

-farzandingizni eshitishni o'rganing, qiziqtirgan savollarga javob bering;

-oiladagi agressiv munosabatlarga barham berishga harakat qiling.

Xulosa qilib aytganda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytishmagan, farzand oiladagi munosabatlardan aksidir. Qachonki ota-ona o'z hatti harakat va munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'ya olsagina bolalardagi agressiv xulq-atvor yaxshi tomonga o'zgaradi. Ota-onalar bilan ishlash, ularga ezgu maqsadimizni qay tarzda yoritib berish esa psixogoning mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) Slovar`, Psixologiya, Siyosiy adabiyot nashriyoti -Moskva, 1990 yil
- 2) Entsiklopediya. Umumiy va ijtimoiy psixologiya, M.I.Enikeev, PRIOR nashriyoti -Moskva, 2002.
- 3) Umumiy psixologiya, A.V.Petrovskiy, "O'qituvchi nashriyoti" –Toshkent, 1975.
- 4) V. Noskov, Rivojlanish psixologiyasi va yosh davr psixologiyasi, Vladivostok, 2003